

TALABALARINI MUSTAQIL FIKRLASH QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH

Niyozova Bibiniso Boltayevna

“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universitetining Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalari instituti dekan o'rinbosari

Annotatsiya: Insonning tafakkuri qanchalik mustaqil bo'lsa, u shunchalik tashabbuskor bo'ladi. Fikr kishisi hamisha o'z qarashlarini asoslaydi, kerak bo'lganda himoya qiladi. Shuning uchun yurtimizda mustaqil, ijodiy fikrlovchi shaxslardan iborat barkamol avlod tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Аннотация: Чем самостоятельнее мышление человека, тем он активнее. Человек мнения всегда обосновывает свои взгляды, отстаивает их, когда это необходимо. Поэтому в нашей стране особое внимание уделяется воспитанию всесторонне развитого поколения, состоящего из самостоятельных, творчески мыслящих людей.

Abstract: The more independent a person's thinking is, the more proactive he is. A person of opinion always justifies his views, defends them when necessary. Therefore, in our country, special attention is paid to education of a well-rounded generation consisting of independent, creative thinkers.

Bugungi kunda Respublikamizda bozor munosabatlarining shakllanishi ishlab chiqarish jarayonida raqobatning kuchayishi, malakali kichik mutaxassislariga bo'lgan talabning tobora ortib borishi, mehnat faoliyatini to'g'ri tashkil etish ko'nikma va malakalarni shakllantirish va rivojlantirish zaruriyatini yuzaga keltirdi. Shuning uchun kichik mutaxassislariga bo'lgan ehtiyojning qondirilishi uchun o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarida yoshlarning mustaqil bilim olishini, mustaqil fikr yuritishini yaxshi yo'lga qo'yishda mustaqil ta'limning ahamiyati katta hisoblanadi.

Har bir inson o'z oldida ko'ndalang turgan hayotiy yoki kasbiy muammoni hal etish uchun o'ylanadi, izlanadi, bilganlarini muhokama qiladi, mashaqqat chekadi. Bu ruhan sog'lom odamga xos bo'lgan tabiiy xususiyat hisoblanadi. Ta'lim jarayonida shunday vaziyatga solingan talaba ham o'sha muammoni hal qilish orqali bilim olish yo'lida mehnat qiladi.

Mustaqil faoliyat va ijodiy ishlar o'z-o'zidan erkin tafakkurni talab qiladi. Mustaqil fikri, o'z nuqtai nazari bo'lmagan o'quvchi izlanmaydi, mustaqil faoliyat yurita olmaydi.

Mustaqil fikr yuritish jarayonida insonda fikr, mulohaza, g'oya, faraz, maqsad kabilar vujudga keladi. Mustaqil fikr yuritish til va nutq bilan chambarchas bog'liq ravishda namoyon bo'ladi hamda ular uzluksiz tarzda bir-birini taqozo etadi. Xuddi shu

boisdan inson o'zining mustaqil fikrlashi, muomalasi, muloqoti, nutqi hamda ongli xulq-atvori tufayli borliqdagi mavjudotlardan tubdan ajralib turadi. Inson mustaqil fikr yuritish faoliyatida o'zi aks ettirgan, sezgan, idrok qilgan, tasavvur etgan, xotirlab qolgan narsa va hodisalar to'g'riligi, aniqligi, haqiqiyliigi yoki ularning voqelikka mos tushishini aniqlaydi. Borliqni bilish jarayonida hosil qilingan hukmlar, tushunchalar, xulosalar, farazlar (taxminlar) chiqarilgan qarorlar rost yoki rost emasligini belgilab oladi.

Inson mustaqil fikrlash orqali voqelikni umumlashtirib, bilvosita va bevosita aks ettiradi, narsa va hodisalar o'rtasidagi ichki, murakkab bog'lanishlar, munosabatlar, xossalari, xususiyat hamda muxanizmlarni anglab etadi. Sababi, inson muayyan qonun, qonuniyat va qoidalarga asoslangan holda tabiiy, ijtimoiy hodisa va voqealarni vujudga kelishi, kechishi, rivojlanishi hamda oqibatini oldindan ko'rib turish imkoniyatiga egadirlar. Mustaqil fikrlash aqliy faoliyat sifatida olib qaralganda, inson tomonidan masalalar, topshiriqlar echish nazarda tutiladi. Ularning shartlari, mohiyati, tuzilishi, shakllari va shaxsning anglash imkoniyatlari kuzatiladi. Masala, muammo, topshiriqlarni echish shaxsning ehtiyoji, qiziqishi, mayli, qobiliyati, iste'dodi, salohiyati bilan bog'liq ravishda olib qaraladi, ularning talablarni qabul qilish, muayyan qarorga kelish, vositalar qidirish mustaqil fikr yuritishning mustahkam negizini tashkil qiladi.

Inson hayotga joriy etgan muammolar yechimining saviyasiga qarab, kishilar orasida o'z o'rnini va mavqegini egallab boradi. Shu yo'sinda shaxsning mustaqil fikrlash qobiliyati sayqallanib boraveradi. Fikr inson faoliyati, uning o'zligini kuchi, qudratini, o'zagini tashkil qiluvchi ma'naviy-insoniy sifatdir. Insonning erkin va ozodligi uning fikrining mustaqilligi, erkinligidan boshlanadi. Fikr erkinligi – insonning asosiy ma'naviy-insoniy xuquqidir.

Fikrlash faoliyati – umumlashtirish va abstraktsiyalashning oliy darajasiga ko'tariladi, hodisalarning sababiy bog'lanishlari yo'nalishini oshiradi, unda ahvolni asoslash va nisbatan malakasi shakllanadi, fikrlashda tanqidiylik rivojlanadi. Fikrlash faoliyatining rivojlanishi nazariy tafakkurning shakllanishiga, tabiat va jamiyatning umumiy qonunlarini bilishga, falsafiy kategoriyalarni o'zlashtirishga bo'lgan qobiliyatning shakllanishiga omil bo'ladi.

O'quvchi-talabalarning mustaqilligi va o'quv faoliyatini ta'qiqlamasdan, balki ularni belgilangan maqsad sari yo'naltirish, o'quv faoliyatini hamkorlikda tashkil etish va o'quv-biluv faoliyatiga ongli ravishda yo'llash, biror bir faoliyatni buyruq orqali amalga oshirish o'rniga pedagogik jarayonni samarali tashkil etish orqali yoshlarda fan asoslarini, mutaxassilik bo'yicha bilimlarini o'rganishga bo'lgan qiziqishni orttirish, shaxsning ehtiyoji, istagi, moyilligi va imkoniyatlarini chegaralamasdan bilim va hunar egallashning demokratik yo'llariga burish sanaladi.

О'quvchilarning bilish faoliyatini maksimal darajada aktivlashtirish, ularning aktiv, mustaqil, ijodiy tafakkurini avj oldirish kasb-hunar ta'limining muhim vazifasiga aylanib bormoqda.

Ta'limning asosi – o'qituvchining o'quvchilarga yetkazadigan mushkul axborotni esda olib qolish emas (garchi bu muhim vazifa bo'lsa-da), balki bu axborotni olish jarayonida o'quvchilarning o'zlari aktiv ishtirok etishi, ularning mustaqil fikr yuritishini, mustaqil bilim olish qobiliyatini, o'z-o'zicha ma'lumotini oshirish qobiliyatini asta-sekin shakllantirib borishdan iborat bo'lmog'i kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Usmonov B.SH., Xabibullayev R.A. Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O'quv qo'llanma. – Toshkent, TKTI, 2020. - 120 bet.
2. Azizov U. Kredit-modul tizimi va uning o'ziga xos xususiyatlari. - http://uzbekistonovozi.uz/uz/articles/index.php?ECTION_ID=161&ELEMENT (Manbaga 24.09.2020 da murojaat etilgan).
3. U.A.Maxmonov. Kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish va nazorat qilish texnologiyasi. “Zamonaviy ta'limda pedagogika va psixologiya fanlari” nomli elektron jurnal. №1-son, 2021 yil.
4. N.X.Avliyakulov, N.N.Musayeva. Pedagogik texnologiya. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. Toshkent, Cho'lpon NMIU, 2012. -208 b.
5. Z.Is'hoqova. Mustaqil ish qanday yoziladi: “Falsafa” fani bo'yicha mustaqil ta'lim uchun o'quv-uslubiy qo'llanma. Toshkent, “Yangi nashr”, 2014.-64 b.